

МИЛЛИЙ ИДЕЯ ҲАМ РУЎХЫЙЛИҚ ТИЙКАРЛАРЫ, ТАРИЙХ, ФИЛОСОФИЯ

QO‘QON QOG‘OZI QAYTA TIKLANDI

Yo‘ldasheva M.R.

Qo‘qon ixtisoslashtirilgan san‘at maktabi mutahassislik o‘qituvchisi

Tayanch so‘zlar: qog‘oz, sultoni, ipak, nimkanop, paxta, shoyi, tola, rang xattot, shirvach, chiy, uvada, xalpa, maqsad.

Ключевые слова: бумага, султан, шёлк, пенька, хлопок, шёлк, волокно, цветная каллиграфия, ширвач, чий, угада, халпа, цель.

Key words: paper, sultan, silk, hemp, cotton, silk, fiber, color calligraphy, shirvach, chiy, uvada, khalpa, goal.

“Qog‘oz kashfiyoti va kitob nashrining ixtiroqilinishi dunyoda cheksiz o‘zgarishlarning boshlanishiga olib keldi.”

Frensis Bekon ingliz faylasufi.

Qog‘oz – tolalarning betartib joylashishidan tashkil topgan yozuv ashyosi hisoblanadi. Qog‘oz insoniyat tarixidagi eng buyuk kashfiyotlardan biri. Uning vositasida insonlar bilimlari, ixtirolari, tarix, fan, san‘at ma‘lumotlari saqlab qolinadi va avlodlarga etkaziladi.

Qog‘oz 105 yilda kashf qilinib, hozirgi kungacha insonlarga xizmat qilib kelmoqda. 751yilda Arab Xitoy qo‘shinlari orasida bo‘lib o‘tgan Talas jangi natijasidan jangda g‘olib bo‘lgan arablar xitoylik asirlarni asir oladi. Xitoylik asirlar jonini saqlab qolish maqsadida qog‘oz tayyorlash sirini arablarga ochadi va mahalliy xalq vakillari bilan Samarqadda ilk bor qog‘oz tayyorlashni yo‘lga qo‘yganlar.

Alisher Navoiy yashab ijod qilgan davrda tarixchi, shoir, sahhof va musavvirilar qo‘lyozma kitoblar tayyorlashni yuqori san‘at darajasiga olib chiqdilar. Ma‘lumki qo‘lyozma kitob yozishda ko‘plab, sifatli qog‘ozni talab qiladi.



Qo'lyozma kitob insoniyat tarixida alohida ahamiyatga ega bo'lib, avvalgi ajdodlar tajribasini, ma'naviy merosini o'zida aks ettira olishi, ularni saqlashi hamda kelajakka yetkaza olishi bilan qimmatlidir.

Markaziy Osiyo qo'lyozma kitoblari o'zidagi qog'ozning sifatli ekanligi, o'ziga xos ziynatlanishi, nafis, mo'jaz rasmlar bilan bezatilganligi, ajoyib muqovalarga egaligi bilan ajralib turadi. Turli hunarmandlar-qog'ozgar, sahhof, xattot, muzahhib, jadvalkash, rassom, muqovasoz-mujallid hamkorligida yaratilib, ajoyib san'at va ma'naviyat obidasiga aylangan. Qo'lyozma kitob turli davrlarda turlicha uslubda, turli qog'oz turlarida yaratilgan. Ular jamiyat ma'naviy hayoti talabini qondirishga xizmat qilgan.

XV-XVI asrlarda Movarounnahr va Xurosonda sifatli qog'oz tayyorlash o'zining yuqori cho'qqisiga ko'tarildi.

XV asr oxiri XVI asrlarda mashxur bo'lgan qog'ozlar "Xitoyi", "Samarqandiy", "Buxoriy", "Bog'dodiy", "Isfaxoniy", "Kashmiriy" va boshqa nomlar bilan yuritilgan.

A.Navoiyning zamondoshi mashhur xattot Sulton Ali Mashhadiy 1514yilda yozgan "Serat as Sutur" (YOzish qonuni) traktatida Samarqand qog'oziga yuqori baho berib shunday yozadi: -"Har qancha sinasang ham xitoy qog'ozidan yaxshisi yo'q. Ammo Samarqand qog'ozini bebahodir. Agar sen aqlli odam bo'lsang undan voz kechma, undagi yozuv ravon va go'zal bo'ladi."

VI asrda chizilgan ba'zi miniatyura suratlarida qog'ozga ishlov berish jarayonlari tasvirlangan. Kamoliddin Behzod qalamiga mansub "YOsh Alisher Navoiy va Mirzo Boysunqurlar maktabda" nomli miniatyura suratida madrasa hovlisida qog'ozgarlarning qog'ozni ranglash va arqonga osib quritish jarayoni tasvirlangan.



"YOsh Alisher va BoysunqurMirzo maktabda. Hirot." K. Behzod.

Ushbu surat buyuk musavvir Kamoliddin Behzod qalamiga mansub bo'lib, Alisher Navoiy va Boysunqur Mirzoning maktabdagi suhbatini va ijodiy faoliyatlarini yoritilgan. Unga ko'ra maktab hovlisidailm olish bilan birga, o'quvchilarga qo'lda qog'oz tayyorlash sir asrorlari o'rgatilmoqda. Asarda qog'oz xomashyosini maydalash va yanchish jarayonlari, yuqori qismida turli ranglarga bo'yab, simga osib, quritish jarayonlari amalga oshirilayotganligi tasvirlangan. Asarning markaziy qismida tayyor qog'ozlarga ishlov berib, silliqlash jarayonlari olib borilmoqda. Asar pastki qismida tayyor qog'ozlarning sifati tekshirilib, sinovdan o'tkazilmoqda.



XVI asr miniatyura suratidan parcha. Hirot.

Ushbu asarda ham madrasadagi ta'lim va qo'lda qog'oz tayyorlash jarayonlari tasvirlangan ammo, yuqorisidagidan farqi shundaki, qog'oz tayyorlash ashyosi o'zgacha. Bu asarda qog'oz tut novdalaridan tayyorlanmoqda. SHu sababli tayyor qog'ozlar rangiga ahamiyat beradigan bo'lsak, sarg'ish tusda. YA'ni tut novdasining rangida.

XVIII asrda Samarqand va uning atrofida 42 ta qog'oz tayyorlash ustaxonalari mavjud bo'lgan.

Buxoro qog'oz. Samarqand usulida qog'oz tayyorlash ziyolilar, o'quv markazlari joylashgan boshqa shaxarlardan Buxoro va Hirotida ham rivoj topdi. Qog'oz ishlab chiqarish Buxoroda qachondan boshlangani haqida aniq fikr bildirish qiyin bo'lsada 1252-1253 yilda boshlanganligini taxmin qilinadi. Buxoro qog'ozlariga xom ashyosi bo'lib asosan tut daraxtining turli navlarining po'stlog'lari xizmat qildi.

Qo'qon qog'oz. Qo'qon qog'ozini tayyorlash XVII asrda Tangriyor Sulton davridan boshlangan deb hisoblanadi. Markaziy Osiyoda bo'lgan fotograf F.Ordening "Kavkaz va O'rta Osiyo" 1880-1890yy.to'rt tomlik foto albomida Qo'qon qog'ozgarlarining ish jarayonini tarixiy fotolarda muxirlangan. A.A.Semyonov keltirgan malumotlarga ko'ra Qo'qon qog'oz paxtalik eski matolardan tayyorlangan. Ishlatilgan, ishdan chiqqan turli lattalar, ayniqsa, tutish imkoni bo'lmay qolgungacha ishlatilgan, titlib ketgan choponlar va ko'rpalar xomashyoni tashkil etadi.



Qog'ozgar ustaning hovuzdan xalpa bilan qog'oz olish jarayoni.

Bu suratga ahamiyat bersak, qog'ozgarning tayyor massani suvdan suzib olish jarayoni tasvirlangan, lekin birinchi plandagi katta xalpa e'tiborni tortadi. Xalpa qog'oz tayyorlash uchun muhim ashyo hisoblanib, chiy o'simligidan maxsus tayyorlanadi. Qog'ozni suvdan suzib olishda aynan xalpadan foydalaniladi.



Qog'ozlarni alebast suvoqli devorga yopishtirish.

Ushbu suratda xalpada suzib olingan qog'ozlar suvoqli devorga yopishtirilib, quritilish jarayoni ko'rsatilgan. Qog'ozni quritishda suvoqli devordan foydalanishdan maqsad devor qog'ozdagi namni o'ziga tez shimib oladi. SHu sababli suvoqli devordan foydalanilgan.



Muxrakashning qog'oz yuzasini silliqlash jarayoni.

So'nggi suratda suvoqli devorda quritilgan qog'ozlarga ishlov berish ya'ni, qog'oz tayyorlashning oxirgi jarayoni aks ettirilgan. Bu jarayonda qog'ozga ishlov berishda maxsus joydan foydalaniladi va maxsus yog'ochdan tayyorlangan silliqlash uchun xizmat qiladigan ashyo ishlatiladi. Jarayonda qog'ozga unli massa suriladi, qurigach, maxsus yog'och bilan silliqlaniladi. Bu qog'ozning sifati oshishiga, yozilganda siyoh tarqamasligiga, tasvir chizilganda esa chiziqqlar aniq tasvirlanishigv xizmat qiladi.

Qo'qon qog'ozlari ko'rinishi sifati va turi bo'yicha: abrishshimi, xafrang, jaydari, o'rama va boshqa nomlar bilan atalgan.

Qo'qon qog'ozida yozilgan qo'lyozma kitoblar qog'ozini tahlil qilinganda ular ikki turdaligini ko'rish mumkin. Birinchisi: chiy qamishlaridan tayyorlangan xalpa vositasida suzib olingan qog'ozlar bo'lib, yoruqqa qaratilganda parallel joylashgan chiy izlari aniq ko'rinadi. Ikkinchisi: yuzasi tekkis qalinlik darajasi bir hil, hech qanday izlar ko'rinmaydi. Bu qog'ozlar mato toritilgan xalpaga uvadani quyib tayyorlangan.

Qo'qon qog'ozini haqida ma'lumotlar to'plash maqsadida shahardagi "Qo'qon madaniyati va tarixi" muzeyining etakchi ilmiy xodimi ustoz Dadaboev YAhyoxon domla bilan suxbatlashganimda, domla Buxoro Amirligining XX asr boshlarida chiqargan qog'oz pullari Qo'qon qog'ozida chop qilingani, oxirigi qog'oz ustaxonasi 1930 yillargachan faoliyat olib borgani haqida aytib berdilar.

Xulosa. Bugungi kunda Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti va Yaponiya davlati Aichi universiteti o'rtasidagi ta'lim, ilmiy va innovatsion hamkorlikni rivojlantirish maqsadida, "The research for the culture of contemporary hand-made paper and artistic expression" (Zamonaviy qo'lda tayyorlanadigan qog'ozni madaniy va badiiy ahamiyati tadqiqi (Yaponiya, Janubiy Koreya, Xitoy, O'zbekiston) nomli ilmiy-amaliy loyiha asosida izlanishlar olib borilmoqda. Yaponiyalik qog'oz ustalari bilan hamkorlikda Samarqand qog'ozini tiklash maqsadida bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda.

KBehzod nomidagi MRDI "Miniatyura va kitob grafikasi kafedrasining etakchi o'qituvchilari B.Xadjimetov va M.Sabirovlar qadimgi yozuv qog'ozlarini tayyorlash usullarini ilmiy taxlil qilish bilan birga "Xattotlik va miniatyura" yo'nalishida ta'lim oluvchi talabalarga tut po'stlog'idan qog'oz tayyorlash sirlarini amaliy mashg'ulotlarda o'rgatmoqdalar.

Sabirov Mirhamid Muhammedjanovich va shogirdi xattot va miniatyurist Mahfuza Yo'ldashevalar paxta matosidan tarixga aylangan va unutilgan Qo'qon qog'ozini qayta tiklashga muvaffaq bo'ldilar.

O'rta asrlarda dunyoga mashhur bo'lib, keyin unutilgan, milliy qadriyatlarimizdan biri yozuv qog'ozlarini qo'lda tayyorlash usullarini tiklash va kelgusi avlodlarga etkazish borasida olib borilayotgan amaliy ishlardan maqsad O'zbekiston nomini jumladan Qo'qon shahrini dunyoga tanitish, turizmni rivojlantirishga o'z hissamizni qo'shish. Qadimiy kitobot sanatini tiklab, xattotlik sanatini rivojlantirish. Ajdodlarimizning buyuk merosi bo'lgan, unutilib ketgan tarixiy asarlarini qayta tiklash, yozish, ularni restavratsiya qilish uchun ham qo'lda tayyorlangan qadimiy qog'ozlar zarur bo'ladi.

Miniaturaga, xattotlik va naqsh asarlari zamonaviy qog'ozdan ko'ra an'anaviy qog'ozga ishlansa, qadri hamda narxi oshadi va talab kuchayadi. Bu esa san'at asari qadrini oshishiga xizmat qiladi. Ekologiyaga ham ijobiy ta'siri bor. Sababi, ishlatilmayotgan paxta matolari yoqib yoki chiqindiga tashlab yuborilgandan ko'ra, qayta ishlanib, qog'oz tayyorlansa, qog'ozdan turli maqsadlarda foydalanish imkoniyati ko'pdir. Arzon mahsulotdan foydalanib, qimmat mahsulot yaratish mumkinligiga isbotlaydi.

Adabiyotlar:

1. A.A.Semyonov "O Sredneaziatskoy bumage." Iz Akademii nauk Tadjikskoy SSR. Dushanbe 1963
2. Naim Norqulov, Ilyos Nizomiddinov Miniaturaga tarixidan lavhalar G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti Toshkent-1970.
3. A.YU.Kaziev. Xudojestvennoe oformlenie Azerbaydjans-koy rukopisnoy knigi XIII–XVII vekov. Izdatelstvo "Kniga". Moskva. 1979.
4. A.P.Balachenkova "Istoriya bumagi i bumajnogo proizvodstva." Sankt–Peterburg 2011.
5. Sobirov Mirxamid Muhamedjanovich. "Markaziy Osiyo qog'oz". Moziydan sado. 1/2020(85).

РЕЗЮМЕ

Maqolada insoniyat taraqqiyotidagi buyuk kashfiyotlardan biri qog'oz haqida, Samarqand, Buxoro, Qo'qon qog'ozlarining tarixi, ashyosi, ularning ashyolari, tayyorlash bosqichlari, tiklash yo'lida Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn institutining yetakchi o'qituvchilari va talabalarining bu yo'lda olib borayotgan amaliy ishlari, qadimgi qog'oz turlarini tiklashdan maqsadlari va ushbu amaliy ishlarning dolzarbligi keng yoritilgan. Suratlar tahlili ham bayon etilgan.

РЕЗЮМЕ

В статье речь идет о бумаге, одном из величайших открытий в развитии человечества, истории Самаркандской, Бухарской, Кокандской бумаги, ее материалах, их материалах, этапах подготовки и восстановления ведущих преподавателей и студентов Национального института Искусство и дизайн имени Камолитдина Бехзода. Широко освещены проведенные по пути практические работы, цели реставрации древних видов бумаги и актуальность этих практических работ. Также описан фотоанализ.

SUMMARY

The article deals with paper, one of the greatest discoveries in the development of mankind, the history of Samarkand, Bukhara, Kokand paper, its materials, their materials, the stages of preparation and restoration of leading teachers and students of the National Institute of Art and Design named after Kamoliddin Behzod. The work carried out on ways of practical work, goals of restoration of ancient types of paper and the relevance of these practical works. Photoanalysis is also described.